

**JADID MA'RIFATPARVARLARINING MAORIF, MATBUOT,
ADABIYOT VA SAN'AT SOHALARIDAGI ISLOHOTCHILIK
FAOLIYATI HAMDA UNING MILLIY TARAQQIYOTDAGI O'RNI**

Patiyev Xoldor Ikromovich

Termiz davlat pedagogika instituti Falsafa,
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
kafedrasida o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Jadid ma'rifatparvarlarining maorif, matbuot, adabiyot va san'at sohasida qilgan ishlarini qisqacha bayon yetishga harakat qildim. Shu o'rinda ularga turtki bo'lgan omillar, qarshiliklar va ziddiyatlar haqida ma'lumotlarni qisqacha bayon qildim.*

***Kalit so'zlar:** "Murojaat", "Adibi avval", "Islomning qisqacha tarixi", milliy g'urur, gazet, majallasi.*

Har qanday jamiyat va davlat o'z taraqqiyot yo'lini tanlab olar yekan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalariga katta ye'tibor qaratadi. Bu sohalarning biriga ko'proq munosabatda bo'lish barchasini birdek tanazulga boshlaydi. O'rta asrlar Florensiya shahar-respublikasi savdo-sotiqni rivojlantirib, undan kelgan foydani me'morchilik, rassomlik va haykaltaroshlik jabhalarini rivojlantirishga sarflash orqali muvozanatni saqlab, gullab-yashnagan diyorga aylandi. O'zbekistonni ham rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shish maqsadida barcha sohalarda keng ko'lami islohatlarni davom yetirilmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy sohani atroflicha o'rganishda va o'rgatishda jadid ma'rifatparvarlari qarashlaridan, fikr va g'oyalaridan foydalansak maqsadga muvofiq bo'lar yedi. 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonun, 2021-yil 26-martagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori kabi

normativ hujjatlarda boshqa sohalar bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy sohani ham rivojlantirish asosiy vazifa sifatida qaraldi.

Shu o'rinda aytishimiz lozimki Ma'naviy-ma'rifiy sohani rivojlantirishda jadid ma'rifatparvarlari ijodini tahlil qilish ham asosiy vazifa hisoblanadi. Ko'pchilik ziyolilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o'ylayman: mamlakatimizda uchinchi Renessansni XX asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin yedi. Ular “ Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lishi mumkin yemas”¹, degan hadisi sharifni hayotiy ye’tiqod deb bildilar.

Ismoilbek Gaspirali 1884-yilda “Tarjimon” gazetasi orqali musulmonlarga qarata shunday murojaat qiladi: “Suyukli do‘stlarim, bizning uchun yeng go‘zal ish ilm va maorif ishidir. Yeng muqaddas intilish ilmga, maorifga intilishdir. Chunki insonni inson etgan mehnat va bilimdir. Bilim madaniy turmush (sivilizatsiya) ga yetishish vositasidir”. Jadidchilarning yeng asosiy maqsadlari ilm va maorifni yuqori cho‘qiga chiqarish yedi. Ismoilbek Gaspirali 1893-yilda Toshkentga keladi va ziyoli ulamolar bilan uchrashadi. Samarqandda bo‘ladi. U yerdan Buxoroga borib, amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko‘ndiradi va bu maktabga “Muzaffariya” degan nomni beradi.

Jadidchilik g‘oyasi Turkistonda XIX asr 80-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab tarqalib, XX asrning boshlarida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy harakat sifatida shakllandi. Jadid ma'rifatparvarlari yetakchilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy yoshlarni ilmiy qilish borsida shunday fikr bildirib o‘tadi: “Turkiston bolalarini ilmsiz qo‘ymangizlar. Hammaga ozodlik yo‘lini ko‘rsatingizlar” Bu

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 30.09.2020-йил



soʻzlar bilan maʼrifatparvar ilm hurlik, yerkinlikka olib chiqadigan asosiy yoʻl yekanligini bildirib oʻtadi. Jadidchilar yoshlarni ilmi qilish uchun oʻzlarining maktablarini ochishdi va ularda oʻzlari hamda yaqin safdoshlari dars bera boshladilar. Maktablar uchun oʻzlari darsliklar yaratib, fan taraqqiyotiga sezilarli taʼsir oʻtkazdi. Turkiston hududidagi yangi usul maktablari asosan toʻrt yillik boshlangʻich taʼlimga asoslangan yedi. Faqat oktabr inqilobi arafasidagina Toshkent, Qoʻqon, Samarqand kabi yirik shaharlarda 6-7 yillik yuqori sinflar ham paydo boʻladi. Yangi usul maktablarini keng tartib qilish ulardagi taʼlim-tarbiya natijalarini omma oʻrtasida namoyish etish maqsadida imtihon olish marosimlari tantali vaziyatda oʻtkazilgan. Koʻp oʻtmay, asta-sekinlik bilan har joyning oʻz darsliklari paydo boʻla bordi. Xususan, Turkistonda “Ustozi avval”, “Adibi avval”, “Birinchi muallim” kabi darsliklar maydonga keldi. “Ustozi avval” inqilobga qadar 17 marta qayta nashr yetilgan. Maktab ochgan jadidlar dastur, qoʻllanma va darsliklarni ham oʻzlari yaratdilar. Yana quyidagi asarlar ham ahmiyati yuqori boʻlgan: Sayidrasul Sayidazizovning “Ustodi avval”, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Tajvid” (Qurʼonni qiroat bilan oʻqish usuliga oid qoʻllanma), “Havoyiji diniya” (Shariat qonunlari toʻplami), “Yor yuzi”, “Usuli hisob”, “Tarixi anbiyo”, “Tarixi islom”, Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” va “Ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston yohud ahloq”, Mahmudxoʻja Behbudiyning “Qisqacha umumiy geografiya”, “Bolalar maktubi”, “Islomning qisqacha tarixi”, “Amaliyoti islom”, “Aholi geografiyasiga kirish”, “Rossiyaning qisqacha geografiyasi”.

Jadid maktablari ochilishi din vakillari ayniqsa yeski maktab o'qituvchilarining keskin qarshiligiga uchradi. Chunki jadid maktablari ochilishi yeski maktablardagi o'quvchilar soni kamayib ketishiga sabab bo'lgan yedi.

Jadidlar oliy ta'limning asosiuniversitet tashkil yetish uchun Toshkent shahar Dumasidan ham foydalandilar. Munavvarqori, Fitrat, M. Behbudiy, U.Asadullaxo'jaev va boshqa jadidlar milliy dunyoviy oliy ta'lim g'oyasini o'z asar va maqolalarida keng targ'ibot-tashviqot qiladilar. Oliy ta'limga zamin yaratish uchun, jadid maktablarida dunyoviy ilmlar o'qitildi, xorijga yoshlar o'qishga yuborildi².

Jadidlar millat himoyasi uchun jangovar qalqon va muazzam minbar bo'lgan gazeta va jurnallarni tashkil yetish uchun juda shaxdam kurashadilar. Toshkentda Ismoil Obidov "Taraqqiy", Munavvarqori Abdurashidxonov "Xurshid", Abdulla Avloniy "Shuhrat", Sayidkarim Sayidazimboev "Tujjor", Ahmadjon Bektemirov "Osiyo", Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev "Sadoi Turkiston" gazetalari, shuningdek, Abdurahmon Sodiq o'g'li (Sayyox) "Al-Isloh" jurnalini nashr yetishga muvaffaq bo'ldilar. Samarqandda yesa Muhmudxo'ja Behbudiy "Samarqand" ruscha gazetasi va "Oyna" jurnalini, Qo'qonda Obidjon Mahmudov "Sadoi Farg'ona" (1914) gazetalarini chiqardi. Buyuk millatparvar jadidlar, jadid matbuoti orqali millatni o'z madaniy-iqtisodiy ahvoli, siyosiy qaram va huquqsizligini anglatishga, unda bosqinchilarga qarshi nafrat, milliy istiqloлга ishonch ruhini tarbiyalashga muvaffaq bo'ldilar. Jadidchilik ilm va morif bilan bir qatorda adabiyot san'atni ham rivojlantirishga, yangi adabiyot va san'at bilan

² Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari). IKKINCHI KITOB.(– T.: "Sharq", 2010, - B. 292)

xalqning milliy ruhini, milliy g'urur, milliy ong va madaniyatini ko'tarishga harakat qiladilar.

Agar mumtoz adabiyotda dunyoviylikka nisbatan diniy jihat ustunroq bo'lgan bo'lsa, jadid adabiyotida bularning o'rtasida o'zaro tenglik ya'ni diniy-dunyoviylik qaror topdi. Jadid adabiyoti bevosita ijtimoiy-siyosiy va ma'rifatchilik mafkurasi, milliy-ozodlik xususiyatiga yega bo'ldi. Unda mazlum xalq hayoti bevosita o'z ifodasini topdi. Badiiy asarlar jonli xalq tilida yozildi. Ijtimoiy faollik va milliy ruh bu yangi adabiyotning yeng muhim xususiyatiga aylandi. Akademik A. N. Samoylovich jadid adabiyotini o'rganib, 1916 yilda "Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan xol yedi" deb yozgan yedi. "Jadid adabiyoti" bu yangi adabiyot yedi. Bu adabiyot o'z mazmun va mohiyati hamda janrlariga ko'ra, ming yillar davomida shakllanib rivojlangan mumtoz adabiyotimizdan tubdan farqlanuvchi yangi adabiyot bo'ldi.

1. Jadid adabiyoti mumtoz adabiyotdan farqli ravishda g'arb adabiyotidagi roman, drama, yesse, hikoya va barmoq vazniga asoslangan she'riyat (poetika) kabi badiiy janrlar ko'rinishiga yega bo'ldi. Proza va publitsistika paydo bo'ldi.

2. Agar mumtoz adabiyotda dunyoviylikka nisbatan diniy jihat ustunroq bo'lgan bo'lsa, jadid adabiyotida bularning o'rtasida o'zaro tenglik ya'ni diniy-dunyoviylik qaror topdi.

3. Jadid adabiyotidagi badiiy-lirik qahramon qiyofasi mumtoz adabiyotdagi qahramon qiyofasidan tubdan o'zgardi. U yendi an'anaviy oshiq yohud ma'rifatparvargina yemas, balki mavjud mustamlaka jamiyati tartib-qoidalari hamda milliy tengsizlik bilan kelisha olmaydigan, shu bilan birga yangicha o'z ijtimoiysiyosiy va ahloqiy qarashiga yega bo'lgan shaxsdir.

4. Jadid adabiyoti bevosita ijtimoiy-siyosiy va ma'rifatchilik mafkurasi, milliyozodlik xususiyatiga yega bo'ldi. Unda mazlum xalq hayoti bevosita o'z ifodasini topdi. Badiiy asarlar jonli xalq tilida yozildi. Ijtimoiy faollik va milliy ruh bu yangi adabiyotning yeng muhim xususiyatiga aylandi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz lozimki, Jadidchilar xalqimizning qalbini ziyo bilan, tabir joiz bo'lsa ilm-ma'rifat ziyosi bilan to'ldirishga bor imkoniyatlari bilan harakat qilishgan. Bugungi kunda ham ularning qilgan ilmiy-amaliy ishlaridan foydalanib, faoliyat olib borsak foydadan holi bo'lmaydi. Zero millat kelajagi bilimli yoshlar qo'lida.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020-yil
2. Aliev A. Mahmudxo'ja Bexbudiy. –T.: Yozuvchi, 1994.
3. A'zamxo'jaev S. Turkiston muxtoriyati. – T.: Ma'naviyat, 2000
4. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. –T.: Sharq, 2000. –B. 259-318; 426-444.
5. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – T.: Sharq, 2000.
6. O'zbekiston tarixi. R.Shamsutdinov, x.Mo'minov. “Andijon”. 2011, 14. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullaev O'. Vatan tarixi (xVI – xx asr boshlari). K.2. –T.: Sharq, 2000. –B. 266-302.

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLARDA NATIJALAR MUHOKAMASI

XXIV-RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
YAKUNLARI BO'YICHA ILMIY ISHLAR TO'PLAMI

Issue - 6(2026)

Available at www.uznauka.uz



7. Shamsutdinov R., Karimov Sh. O‘zbekiston tarixidan materiallar. K.3. – 16. Andijon: 2004
8. Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi (O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). UChINChI KITOB. (– T.: “Sharq”, 2010.)